

**EKOLOGIK BILIMLARNI BERISHDA FANLARARO
ALOQALARNI UYG'UNLASHTIRISH**

Xoljigitova Rayhona Ibodulla qizi

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Begbo'tayev Dilshodbek Sharof o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlar darslarida fanlararo aloqalardan unumli foydalanish, fanlararo aloqalar tabiiy, tarix va adabiyot fanlar o'rtasidagi munosabatlarni haqida ma'lumotlar berilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan bunday munosabatlar o'rnatilishi uchun bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlash zarur hisoblanadi

Tayanch so'z va iboralar: Ta'lim, tarbiya, tarix, landshaft, yer, ekskursiya, pedagogik texnologiya, loyixa, tadqiqot.

Kirish. Mamlakatimizda Ta'lim to'g'risidagi qonun (1997 yil 29 avgust) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida tub islohotlar olib borish, ta'limni yanada rivojlantirish va uning uzliksizligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining har tomonlama yetuk o'qituvchilarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'limning turli bosqichlariga yetuk pedagogik kadrlarni yetkazish avvalo ta'lim sohasidagi tadqiqotlarni izchil olib borish, ta'lim metodikasi faniga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Darslarni olib borishda boshqa fanlar bilan bog'lab olib borish yaxshi samara beradi. Fanlararo aloqalar alohida fanlar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib ular ta'lim jarayonida va talaba tomonidan o'rnatilishi kerak. Bunday bog'lanishlarni aniqlash uchun bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi va ularni amaliyotda yanada samarali qo'llashga yordam beradi. Shuning uchun o'qituvchi har qanday fanni o'rganishda ushbu muammoga alohida e'tibor qaratishi zarur hisoblanadi. Shu jihatdan kelib chiqqan holda tabiiy fanlar darslarida Vatanimiz tabiati va uning boy tabiiy resurslari o'rganilayotganda, biologiya va adabiyot fanlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Undan tashqari darslarida badiiy adabiyotlardan foydalangan holda o'tilgan darslarda o'quvchilar faolligini oshirish, ularning mustaqil ishlashga o'rgatishdan iboratdir.

Tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti. ishining **ob'ekti** biologiya, fizika, tarix, adabiyot fanlaridagi asarlar ma'lumotlari, **predmeti** esa barcha manbalardan O'zbekiston tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini dars davomida o'quvchilarga ochib berishdir.

Tadqiqot ishining metodi. Mazkur ishda tarixiy, taqqoslash, solishtirish, qiyoslash, ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish, chuqurlashtirish kabi an'anaviy hamda

zamonaviy pedagogik texnologiyalarning keys stadi va swot-tahlil metodlardan foydalangan holda o'quvchilarga yetkazish.

Tabiiy fanlarni o'qitishni hozirgi zamon talabi darajasiga ko'tarish masalasi uni boshqa fanlar bilan izchil bog'lab olib borishni talab qiladi. O'qituvchi o'z fani materiallarini o'rgatish bilan birga o'quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilim va malakalariga tayanishi, o'quvchilarga barcha fanlar o'rtasida o'zaro bog'lanish borligini ko'rsatish va ularga boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalana bilishni o'rgatishi, ularning fikrlash qobiliyatlarini aktivlantirish, bilimlarini chuqurlashtirishi zarur hisoblanadi. Tabiiy fanni o'qitishni boshqa fanlarga mustahkam bog'lab olib borish uchun o'qituvchining o'zi boshqa dars dasturlarini yaxshiroq bilishi, o'quv masalalarini boshqa dars o'qituvchilari bilan birga hal qilishi lozim.

Geografiyaning botanika va zoologiya bilan uzluksiz bog'anishi ob-havo, iqlim va tirik tabiatni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning maktab tajriba uchastkasidagi ishlari meteorologik kuzatishlar natijasidan foydalanganda, amalga oshiriladi. Bu yaqin aloqadorlik geografiya va biologiya o'qituvchilari rahbarligida tabiatga qilingan kompleks ekskursiyalar orqali bajariladi. Bu ekskursiyalar vaqtda botanika va geografiyadan kuzatish va amaliy ishlar bajariladi.

5-sinf dasturida geografiya hamda botanikadan kuzgi ekskursiya uyushtirish uchun alohida soat ajratilgan. Binobarin, o'quv dasturida ko'rsatilgan ekskursiyani o'tkazish majburiydir. Shunday ekan, botanika bilan geografiyadan uyushtiriladigan kuzgi ekskursiyaning birga uyushtirilishi katta ahamiyatga ega. O'quv ekskursiya uyushtirishda hozirgacha qiyinchilik tug'dirib kelayotgan narsa shuki, ko'p joylarda ekskursiyalar barcha fanlardan alohida-alohida o'tkazilib kelinadi. Berilgan 2-soatda o'qituvchi maqsadga erisha olmaydi. Buning natijasida o'quvchilar bilimlarini amaliyot bilan bog'lay olmaydilar. Bu esa o'quvchilarning puxta bilim olishlariga erisha olmaydi va shunday qiyinchililardan holi bo'lishda fanlararo aloqa katta ahamiyatga egadir. Masalan, kuzgi ekskursiyani geografiya o'qituvchisi biologiya o'qituvchisi bilan birga uyushtirishi orqali amalga oshirishi mumkin. Chunki, har ikki fandan ekskursiya uyushtirish uchun ajratilgan soatlar fanlar bilan o'zaro aloqada olib borilsa yaxshi natijalar beradi. Ma'lumki, ekskursiyalarni uyushtirishda o'quvchilar oldindan xabardor qilinadi, ularga ekskursiyada qilinadigan ishlar bo'yicha savollar, topshiriqlar beriladi. Ular ekskursiya uchun tayyorgarlik ko'radilar.

Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun biz tabiiy fanlarni o'qitishda keys-stadi va swot-tahlil metodlarini qo'llanishi haqida ma'lumot beramiz.

O'qituvchi tomonidan keys-stadini yechish va tahlil qilish varianti

Muammo: Insoniyat kelajagiga havf solayotgan ichimlik suvi muammosi va uning yechimi; ichimlik suvi muammosi keltirib chikarishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat muammosi; O'zbekistonda Orol va uning atrofi muammosi; ichimlik suv muammosi

keltirib chikarishi mumkin bulgan ekologik muammoni oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Vazifalar:

- berilgan vaziyat bo'yicha o'quv adabiyoti, slayd, EO'MT, KT resurslari va videoroliklar bilan tanishib chiqish;
- berilgan muammoli vaziyat bilan tanishib chiqish va tahlil qilish;
- vaziyatdagi muammolarni aniqlash;
- muammoli vaziyatdagi tushuncha va tayanch iboralar ustidan ishlash;
- muammoli vaziyat jadvalini to'ldirish va tavsiyalar ishlab chiqish;
- muammoli vaziyat bo'yicha xulosani shakllantirish;

“SWOT - tahlil” jadvali

<p>S–kuchli: O‘zbekiston geografiyasining o‘rganilishi tarixini respublika geografiyasi ning asosiy mazmunini, konstruktiv amaliy geografiyaning O‘zbekistonga oid muhim regional muammolarini va kelgusida hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalarni tushunib olish, ularni atroflicha keng o‘rganish va vatanining tarixi, uni o‘rgangan olimlar ishlarini bilish muhimligi;</p>	<p>O–imkoniyatlar: Geografiya fanining o‘rganilish tarixini bosqichma bosqich o‘rganish. To‘plangan ma’lumotlardan keng foydalanish. Geografik axborot tarmoqlaridan atroflicha foydalanish.</p>
<p>W–kuchsiz: Ilk va o‘rta asrlarda yashab ijod etgan geograf olim va sayyohlarning ko‘plarining ma’lumatlari yo‘qolib ketganligi.</p>	<p>T– xavf-xatarlar: Tarixsiz kelajak yo‘qdir.</p>

Geografiya darslarida shu bilan birgalikda adabiyot va tarix fani bilan o‘zaro aloqalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi..“O‘zbekiston tabiati” mavzusini o‘tishda shoir Hamid Olimjonning mashhur “O‘zbekiston” she’ridan olingan parchadan foydalanish mumkin. Bu parcha o‘lkamiz tabiat elementlari orasidagi tabiiy bog‘lanish ya’ni tog‘ bilan tekislik orasidagi bog‘lanish, tog‘dan boshlangan daryolar tekislikka tomon oqishi, daryo vodiylari va daryo suvi tufayli hosil bo‘lgan vohalar landshaftlari shoirona kuylanadi. Bu o‘quvchilarda emotsiya hosil qilib, o‘lka tabiatining mazmuni va xususiyatini anglashga samarali ko‘maklashadi.

Xulosa. Mamlakatimizda hozirgi kunda yoshlarga ta’lim va tarbiya berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lgan. Yoshlar tarbiyasi hamda ularni tarbiyalashda ta’lim tizimining katta

ahamiyatga ega. Geografiya darslarida Turli fanlarni o'zaro bog'lab olib borish ahamiyati juda katta hisoblanadi. Shu o'rinda kelgusi taraqqiyotni o'tmishdagi noyob meroslarimizsiz o'rganib, o'qib bo'lmaydi. O'rta Osiyo va Sharq mutafakkirlari yashab ijod etgan zaminimizni tarixini, tabiatini ta'riflab o'tgan geograf, sayyoh olimlar xususan Zahiriddin Muhammad Boburdek alloma, shoir, siyosatshunos, davlat arbobi, qolaversa buyuk sayohatchi geograf yaratgan "Boburnoma" yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda juda ahamiyatlidir.

Bilimdon mutaxassis kadrlarni tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jihatdan ustozlarga, ularning bilimdonlik bilan o'qitish jarayonini tashkil qilish va dars berishiga bog'liq. Shuning uchun ham o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning chuqur bilim olishiga yordam beruvchi o'quv metodlarini qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrda o'quv jarayonini tashkil etish o'qituvchidan faqat chuqur bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo'lishlarini, dars berishning turli metodlarini bilishni ham o'z ustida tinmay ishlashni talab qiladi.

Vatanimiz geografiyasini ilmiy-nazariy saviyasini ko'tarish, uning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirish uchun geografiya va boshqa fanlardan qo'shimcha ma'lumotlar va ta'limning badiiy vositalaridan, turli pedagogik metodlardan mohirona foydalanish samarali yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darinskiy A.V. "Metodika prepodavaniya geografii". Moskva, "Prosvesheniya", 1975.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T., O'qituvchi, 1996.
3. Topildiev V.R. Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. –T., 2015. 164-bet.
4. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. T., O'qituvchi, 2001 y.
5. Xoldorova, G. (2021). Mirzacho'lda atrof-muhitni monitoring qilish masalalari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, (1)
6. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
7. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI
8. Hakimov, K. M., Xoldorova, G. M., & Ermatova, N. N. K. (2017). Printsipy i osnovnyye polojeniya nominatsii geograficheskix ob'ektov. Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya, (4 (86)).